



ADVOKATLIK INSTITUTINING MUSTAQILLIGI VA RAQAMLI RIVOJLANISH YO'LI

Maxkamboyeva Diyorabonu Raxim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura bosqichi talabasi

E-mail: dmakhkamboeva@gmail.com

Tel: +99897 119 07 01, Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729849>

ARTICLE INFO

Received: 11th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Published: 24th June 2025

KEYWORDS

Advokatlik faoliyati, raqamlashtirish, tashkiliy huquqiy asoslar. huquqiy tizim, yuridik xizmatlar, onlayn advokatlar, elektron hujjat aylanishi, raqamli advokatura, tizimni raqamlashtirish, yuridik axborot texnologiyalari, elektron huquqiy platformalar.

Fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, advokatlarning mustaqilligini amalda ta'minlash – zamonaviy huquqiy davlat barpo etishning eng muhim ustunlaridan biridir. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ayniqsa, muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyevning bevosita rahbarligida olib borilayotgani yuqori bahoga loyiqdir.

Bosh Qomusimizda advokatlarning haqiqiy mustaqilligini kafolatlovchi normativ-huquqiy bazaning mustahkamlanishi bu sohada islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy sharti hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning huquqiy tizimini tubdan takomillashtirish borasida olib borilayotgan ishlar, jumladan, advokatlik institutining mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, mamlakatning demokratik taraqqiyot yo'lida muhim qadamidir.

Xalqaro maydonda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Inson huquqlari kengashining Advokatlar mustaqilligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayan tomonidan bildirilgan fikrlar ham O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlarini yuqori baholaydi. U mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, sud va advokatlarning mustaqilligini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanish ekanligini ta'kidlagan. Natijada, O'zbekistonda huquqiy davlat tamoyillari asosida barqaror huquqiy muhit yaratish, fuqarolarning asosiy huquqlari himoyasini kuchaytirish va advokatlarning mustaqilligini ta'minlash borasidagi izchil islohotlar mamlakatning barqaror va adolati rivojlanishiga xizmat qiladi. Hozirgi zamon xalqaro huquqida inson huquq va erkinliklari hamda ularni himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu masalalarni hal elishda advokaturaning muhim o'rin tutishi inson huquqlari bilan bog'liq xalqaro-huquq hujjatlarda tobora aniq aks ettirilmoqda.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi yangi qonunchilik bazasi, advokatlar soni va ularning malaka darajasidagi o'zgarishlar, hamda fuqarolarning huquqiy yordamga ehtiyojini tahlil qiladi. Maqolada advokatlik tizimidagi ijobiy tendensiyalar - kasbiy ta'lim sifatining oshishi, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish jarayonlari va institutning mustaqillik darajasining kuchayishi batafsil yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasida Advokatura fuqarolik jamiyatining asosiy va muhim institutlaridan biri bo'lib, uning zimmasiga yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish bilan bog'liq vazifa yuklatilgan. Shu bois ham Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq sud-huquq tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblangan advokatura institutini isloh qilish, demokratik prinsiplarga asoslangan kuchli, mustaqil advokatura tizimini barpo etishga alohida va doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Advokatura tizimida amalga oshirilgan dastlabki islohotlarning huquqiy amaliy natijasi sifatida mamlakatda ilk bor 1996-yil 27-dekabrda

“Advokatura to'g'risida”[1] dagi, 1998-yil 25- dekabrda esa mazkur Qonunning mantiqiy davomi sifatida “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida”[2] O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

Advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti aktlarning amaliyotda qo'llanilishi jarayonida paydo bo'layotgan ayrim muammolar, qonun hujjatlaridagi, xususan “Advokatura to'g'risida” va “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida”gi Qonunlarda taraqqiyotning hozirgi bosqichida ro'y berayotgan o'zgarishlar, respublikada barcha sohalarni xalqaro hamjamiyat bilan integrallashuvi va liberallashuvi, ijtimoiy jarayonlarning chuqurlashuvi ham O'zbekistonda advokatura tizimini isloh qilish, sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

2008-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu Farmon asosida “Advokatura to'g'risida”gi qonunga jiddiy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur Farmonda advokatura ilk bor fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri sifatida e'tirof etilib, advokaturaning samarali o'zini o'zi boshqaradigan markazlashtirilgan tizimini tashkil etish, advokaturani halol va kasb mahorati yuqori mutaxassislar bilan ta'minlaydigan samarali litsenziyalash tizimini tashkil etish, advokatura institutini bosqichma-bosqich takomillashtirish, advokatlar tomonidan kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmi va advokatlarga nisbatan intizomiy ish yuritish tizimini takomillashtirish singari masalalar sohani isloh qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab berildi.

Bugungi kunda raqamlashtirish jarayonlari huquqiy tizimda ham yangi davrni boshlab berdi. Ayniqsa, advokatlik faoliyatining raqamli shakllarga o'tishi “raqamli advokatura” — yuridik xizmatlarning sifatini oshirish, ularni yanada tezkor, shaffof va qulay qilish uchun muhimdir. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

Advokatlik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo'llanilishi, jumladan, elektron hujjat aylanishi, videokonferensaloqa, onlayn murojaatlar tizimlari faoliyat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarga tezkor va sifatli yuridik yordam ko'rsatish imkonini kengaytiradi hamda huquqiy xizmatlarning demokratizatsiyasiga xizmat qiladi. Advokatlar, sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari o'rtasida ma'lumotlarning tezkor va xavfsiz almashinuvi tizimining joriy etilishi advokatlik faoliyatining raqamli transformatsiyasi uchun poydevor vazifasini o'taydi. Bu orqali advokatlar ishonch bidiruvchi shaxs manfaatlarini yanada samarali himoya qila oladi, sud jarayonlarida va tergovda zarur ma'lumotlarni kechiktirmasdan oladi.

Advokatlar tomonidan maxsus axborot dasturlari yordamida jismoniy va yuridik shaxslarga onlayn tarzda yuridik maslahatlar berish imkoniyatlarini kengaytirish fuqarolarning huquqiy yordamga erkin va tezkor murojaat qilishini ta'minlaydi. Bu ayniqsa, hududlardagi aholi uchun yuridik xizmatlarga kirishni osonlashtiradi va yuridik yordamning qamrovini kengaytiradi. Advokatlik faoliyati uchun zarur bo'lgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarida kompleks himoya choralari joriy etish, shu jumladan, ma'lumotlarni shifrlash, kirishni nazorat qilish va tizimlarni muntazam audit qilish, shaxsiy va sirli ma'lumotlarning

oshkor bo'lishining oldini oladi. Bu esa advokatlarning mustaqilligini hamda mijozlarning huquqiy manfaatlarini samarali himoya qilishni kafolatlaydi. Tabiiyki, advokatura tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati beqiyos. Binobarin bu boradagi yangi qadamlar tizim faoliyatida inson omilini bartaraf etish orqali advokatura institutining davlat organlari va boshqa tuzilmalardan mustaqilligini oshirish imkonini beradi.

Albatta, bunday yangilanishlar, imkoniyatlar yaqin kelajakda O'zbekistonda advokatura tizimini rivojlantirish sohasida erishiladigan beqiyos natijalar boshqa mamlakatlar uchun ibrat va namuna sifatida e'tibor qozonishi ehtimoli kattaligidan dalolat beradi[3]. Advokatlik faoliyatini raqamlashtirish bugungi kunda huquqiy sohani modernizatsiya qilish va fuqarolarga malakali, tezkor yuridik yordam ko'rsatishni ta'minlashda muhim omilga aylangan. Ushbu jarayonning samarali va xavfsiz amalga oshirilishi uchun uning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zarur. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali advokatlik institutining mustaqilligi, shaffofligi va samaradorligini oshirish mumkin bo'lib, bu huquqiy davlat qurilishining muhim elementi hisoblanadi. Shu bilan birga, elektron ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yish, axborot tizimlarini himoyalash va maxfiylikni ta'minlashga oid qonunchilikni takomillashtirish advokatlar faoliyatining yuqori sifatini kafolatlaydi. Raqamlashtirish jarayoni advokatlik instituti va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, qonun ustuvorligini ta'minlashga hamda sud-huquq tizimining samarali ishlashiga xizmat qiladi. Shu bois, advokatlik faoliyatini raqamlashtirishning tashkiliy huquqiy asoslarini doimiy ravishda takomillashtirish va zamon talablariga moslashtirish huquqiy islohotlarning muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, adolatli va insonparvar jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. 27.12.1996 yildagi 349-I-sonli "Advokatura to'g'risida" qonun.
3. 25.12.1998 yildagi 721-I-sonli "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" qonun.
4. 01.05.2008 yildagi 3993-son "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni